

Abduxakim ARIPOV,
 Andijon davlat chet tillar instituti erkin tadqiqotchisi
 E-mail: aabdulhakim78@gmail.com
 Tel: (90) 407-70-77

F.f.n. M.H.Abdullayev taqrizi asosida

ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORIGIN AND DEFINITION OF THE TERM "LUGHAT"

Annotation

The term "Lughat" (dictionary) is found in Uzbek, Persian, Ottoman Turkish, Urdu and other Eastern languages. The issue of the origin of this term has been of interest to many. The use of the term "Lughat" (dictionary) in the sense of a collection that includes lexical units of the Uzbek language also shows the experience of the Uzbek (Turkish) language in terms of lexicography. Therefore, in this article, a look at the history of Uzbek lexicology is given by studying the history of the origin of this term.

Key words: Lughat, term, language, dialect, vocabulary, mu'jam, qamus.

АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ НА ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕРМИНА «ЛУГАТ»

Аннотация

Термин «луғат» (словарь) встречается в узбекском, персидском, османском, турецком, урду и других восточных языках. Вопрос возникновения этого термина интересовал многих. Использование термина «луғат» в смысле сборника, содержащего лексические единицы узбекского языка, также показывает опыт узбекского (тюркского) языка с точки зрения лексикографии. Поэтому в данной статье дан взгляд на историю узбекской лексикологии путем изучения истории возникновения этого термина.

Ключевые слова: Луғат, термин, язык, диалект, лексика, муъджам, камус.

“LUG‘AT” ATAMASINING VUJUDGA KELISHI VA TA‘RIFI HAQIDAGI QARASHLAR TAHLILI

Annotatsiya

“Lug‘at” atamasi o‘zbek, fors, usmonli turk, urdu va boshqa sharq tillarida mavjud. Ushbu atamaning vujudga kelishi masalasi ko‘pchilikni qiziqitirib kelgan. “Lug‘at” atamasi o‘zbek tilining leksik birliklarini o‘zida mujassam etgan to‘plam ma‘nosida qo‘llanishi o‘zbek (turkiy) tilning lug‘atshunoslik borasidagi tajribasini ham ko‘rsatadi. Shu bois ushbu maqolada mazkur atamaning paydo bo‘lishi tarixini o‘rganish orqali o‘zbek lug‘atshunosligi tarixiga bir nazar tashlanadi.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, atama, til, sheva, so‘z boyligi, mu‘jam, qomus.

Bevosita mavzuga kirishishdan oldin bir necha tushuncha va atamalarga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq. Dastlab so‘zlik ma‘nosida qo‘llanuvchi “lug‘at” atamasiga to‘xtalsak. “Lug‘at” so‘zi arab tilidagi ilk shaklida “ma‘nosiz so‘zlam, aljiramoq” ma‘nosidagi لغو o‘zakli “til, sheva” ma‘nosini bildiruvchi لُغَةٌ so‘zidan olingan. Bu so‘z dastlab faqatgina til, sheva ma‘nosida qo‘llangan. Sheva, ya‘ni bir so‘zning xalq orasida qo‘llanadigan boshqa shakli ma‘nosida qo‘llanishini ko‘plab mo‘tabar arab tili lug‘atlarida ko‘rishimiz mumkin. Masalan, *أثناء لُغَةٍ فِي أَجَاء* so‘zining shevadagi shaklidir [1].

Keyinchalik لُغَةٌ so‘zining ma‘no doirasi kengayib borib, “til birliklari” yoki “tildagi so‘zlar” ma‘nosini ham anglatadigan bo‘lgan. “Al-Qomus: arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘atda “لُغَةٌ” so‘zining 1. til, lahja; 2. til, vosita; 3. so‘z-ifoda ma‘nolari berilgan [2].

Ilk arabcha so‘zliklardan Ibn Durayd al-Azdiyning (vaf. 933 y.) “Jamharat al-lug‘a” (“Tilni (ng so‘zlarini) to‘plash”), Ahmad ibn Forisning (vaf. 1005 y.) “Mu‘jam maqoyis al-lug‘a” (“Til o‘lchamlari lug‘ati”), “Mujmal al-lug‘a” (“Til so‘zlarining qisqacha majmuasi”), Abu Nasr ibn Hammod al-Jahariyning (vaf. 1010 y.) “Toj al-lug‘a” (“Til so‘zlari toji”) kabi asarlarining nomlarida “اللغة” so‘zi umuman til, til birliklari (so‘zlar) ma‘nosida ishlatilgan [3].

Biroq, so‘zlar majmuasi – so‘zlik uchun atama o‘laroq qo‘llanishi bir muncha keyinroq yuz bergan.

Muhammad G‘iyosuddin ibn Jaloluddin ibn Sharafuddin ar-Rompuriyning (vaf. 1845 y.) “G‘iyos al-lug‘ot” nomli arabcha-forscha-turkcha lug‘atida kitobning nomida لُغَةٌ so‘zi ko‘plikda qo‘llangan.

Bunday holatni boshqa lug‘atlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun, Abu Yusuf Ya‘qub ibn Ahmad al-Kurdiy al-Adib an-Nisoburiy (vaf. 1081 y.) o‘zining lug‘atini “al-Bulg‘a fil-lug‘a” deb nomlagan [4].

Shu bilan birga, G‘iyos al-lug‘otda muallif tarjima qilinayotgan (bu o‘rinda arabchadan fors yoki turkiyga) so‘zni “lug‘at” deb bergan. Kitob muqaddimasida muallif shunday deydi: “حرف اول لغترا باب وحرف ثاني را فصل ساخت” (Muallif) lug‘at (tarjimasi berilayotgan so‘z)ning birinchi harfini bob, ikkinchi harfini esa fasl qildi [5].

Shunday qilib, arabchada “til, lahja” ma‘nosini anglatgan “اللغة” so‘zi semantik o‘zgarishga uchrab, “tarjima qilinayotgan so‘z” ma‘nosini kasb etgan. O‘zbek tilining izohli tug‘atida “lug‘at” so‘zi haqida quyidagicha ma‘lumot berilgan: “So‘z. Tildagi barcha so‘zlar boyligi” [6].

Va nihoyat shunday so‘zlar to‘plami bo‘lgan kitob ham “lug‘at” deb ataladigan bo‘lgan. Bunga boshqa tillardan o‘zbek tiliga yoki aksincha bo‘lgan tarjima so‘zliklarining “lug‘at” deb nomlangani yorqin dalil bo‘ladi. Misol tariqasida arabcha-turkcha Lug‘ati Nojiy [7], Lug‘ati Ramziy [8], Ruscha-o‘zbekcha lug‘at, Forscha-o‘zbekcha lug‘at, O‘zbek tilining izohli lug‘ati kabi ko‘plab lug‘atlarni tilga olish mumkin.

Arab tilida lug‘at ma‘nosida qo‘llangan ilk so‘z “مُعْجَمٌ” so‘zidir. Mu‘jam atamasining tildagi so‘zlarni jamlagan kitobga nisbatan ishlatila boshlashi haqida turli qarashlar mavjud. Husayn Nassor o‘zining “المعجم العربي: نشأته وتطوره” (Arabcha lug‘at: paydo bo‘lishi va rivojlanishi) kitobida bu so‘zning “lug‘at” ma‘nosida qachondan ishlatilgani haqida aniq ma‘lumot mavjud emasligiga e‘tibor qaratadi [9]. Ibn Jinniy (vaf. 1002 y.) *سر صناعة الإعراب* (E‘rob san‘atining siri) kitobida mu‘jam so‘zining kelib chiqishi xususida ko‘plab qarama-qarshi fikrlarni keltirib o‘tarkan, bu borada Abu-l-Abbos Muhammad ibn Yazid al-Mubarrad (vaf. 899 y.)ning fikrini ma‘qullaydi. Al-Mubarradga ko‘ra, “mu‘jam” so‘zi *أَعْجَمٌ* fe‘lining mimli masdari bo‘lib, “noaniqlikni ketkazish, sharhlab tushunarli qilish” ma‘nosini bildiradi [10].

Ayrim olimlarga ko‘ra, nuqtalari qo‘yilib bir-biridan farqlangan alifbo harflari *حروف المعجم* (mu‘jam harflari) deb nomlangan.

Jazoirlik tadqiqotchilar Shuayb Habila va Mas‘uda Xalloflar arab tilidagi “معجم” atamasining paydo bo‘lishi masalasiga bag‘ishlangan maqolalarida ushbu so‘z ma‘nosining ilk lug‘at manbalaridagi shakli hamda keyingi davr tilshunoslari talqinida o‘ziga

xos istiloh – atamaga aylanish jarayonlarini tahlil qilganlar[11]. Mualliflar bu boradagi turli qarash va talqinlardan xulosa qilib, “mu’jam” so’zi hali arabcha harflarga nuqta qo’yilmagan davrda ham alifbo harflarini ifodalaganini ta’kidlaydilar. Bunga Abu Muso al-Ash’ariy r.z.ning Rasululloh s.a.v. vafotlaridan keyin alifbo harflarini yozishni o’rgangani, xuddi chayonlar singari beo’xshov yozgani haqidagi rivoyati[12] hamda tobi’iyatlardan Ato ibn Abi Raboh r.z.ning bir odamga musht tushirib, tili uzilishiga sabab bo’lgan kishiga nisbatan qilgan hukmi misol keltiriladi. Bunda Ato ibn Abi Raboh jabrlanuvchiga “mu’jam”ni birma-bir aytib ko’rishni buyuradi. Nechta harfni ayta olmasa, ayblanuvchiga shuncha harfga yarasha diya beriladi, deb hukm qiladi[13].

Imom Buxoriyning “al-Jomi’ as-sahih” asarida bir bob nomi “باب تسمية من سمي من أهل بدر في الجامع الذي وضعه أبو عبد الله على حروف” “المعجم” “Abu Abdulloh tuzgan al-Jomi’ kitobida Badr ahlidan nomlari keltirilgan zotlar ismlarining alifbo tartibida zikr etilishi bobi” deb atalgan. Bu ham mu’jam so’zining ilk davrda, lug’at ma’nosida uchun qo’llanishdan oldin alifbo harflari ma’nosida ishlatilganiga dalil bo’ladi[14].

Demak, mu’jam so’zi ko’pchilik tilshunoslarning harflarni bir-biridan ajratish uchun ba’zilariga nuqta qo’yish, ma’nosida “aniqlash, aniqlashtirish, chalkashlikni ketkazish” ma’nosidan olingan va ilk bor shu maqsadda qo’llangan, degan fikrlarining u qadar to’g’ri emasligini ko’rsatmoqda.

Keyinchalik, “mu’jam” atamasi alifbo tartibida (xoh alifdan, xoh boshqa harfdan boshlangan bo’lsin) berilgan har qanday kitobga nisbatan qo’llangan. Abu Ya’lo Ahmad ibn Aliy ibn al-Musanno (vaf. 919 y.) sahobalar nomlariga bag’ishlangan bir kitob bitib, uni “معجم الصحابة” nomladi. Shuningdek, Abu-l-Qosim Abdulloh ibn Muhammad al-Bag’aviy (vaf. 929 y.) ham sahobalar nomlariga bag’ishlangan ikki mu’jam tuzdi va ularni “المعجم الكبير” va “المعجم الصغير” deb atadi[15]. Shuningdek, Yoqut al-Hamaviyning (vaf. 1229 y.) mashhur “معجم البلدان” (Mamlakatlar haqidagi alifbo tartibli kitob) nomli geografik asarini tilga olish mumkin. Keyinchalik tilning lug’at boyligini o’z ichiga olgan kitoblarga nisbatan maxsus atamaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, “معجم” so’zining keyinchalik “lug’at” ma’nosida qo’llanishi bir necha bosqichda shakllangan ma’no o’zgarishi natijasida yuzaga kelgan.

Arab tilida lug’at ma’nosida keng qo’llanadigan, xususan keyingi davrda “mu’jam” atamasidan ko’ra ko’proq ommalashgan yana bir atama “قاموس” (qomus) atamasidir. Qomus so’zi lug’atda “dengiz, dengizning eng chuqur joyi” demakdir[16]. Shu bois arablar biror sohada mukammal bilimga ega bo’lgan kishiga nisbatan, “هو قاموس في كذا” (u falon sohada dengizdir) kabi tashbihni qo’llaganlar. Majduddin Abu Tahir Muhammad ibn Ya’qub al-Feruzobodiy (vaf. 1414 y.) o’zining mashhur lug’atini “القاموس المحيط” “Ummon” (okean) deb nomlagan. Ushbu lug’at “al-Qomus” nomi bilan shuhrat qozondi. Hattoki, keyingi davr lug’atlarida “القاموس الجاسوس على” “الجاسوس على” asarini yozib, “qomus” so’zining yanada ommalashuviga hissa qo’shdi. Sa’id ash-Shartuniy (vaf. 1912 y.) o’zining “أقرب القاموس كتاب الفيروزآبادي في اللغة العربية لقبه بالقاموس المحيط ويطلقه أهل” “قاموس على كل كتاب في اللغة فهو يرادف عندهم كلمة معجم وكتاب لغة” “al-Qomus Feruzobodiyning arab tiliga oid kitobi bo’lib, uni “al-Qomus al-muhit” (Ummon) deb atagan. Bizning davrimizdagi odamlar bu so’z (qomus)ni lug’atga oid har qanday kitobga nisbatan qo’llaydilar. Bu so’z ularning nazdida “lug’at kitobi – so’zlik”ning bir ma’nodoshidir”[18]. Keyinchalik bu so’z har qanday lug’atga nisbatan atama o’laroq qo’llanadigan bo’ladi[19].

Lug’atning ta’rifi masalasi ham muhim jihatlardan biri sanaladi. Zero, lug’at tili xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uning ta’rifi ham turlicha ifodalangan. Shu nuqtai nazardan lug’atning turli tillarga oid ta’riflarini birma-bir ko’rib chiqish maqsadga muvofiq.

O’zbek tilining izohli lug’atida “lug’at” so’ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Biror tildagi so’zlarni ma’lum tartibda (odatda alifbo tartibida) jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob”[20].

Arab tilshunoslari “lug’at” (mu’jam yoki qomus) atamasiga turli ta’riflar berganlar. Jumladan, Ahmad Abdulg’afur Attor “mu’jam” (lug’at) kitobi ta’rifi haqida shunday yozadi: So’zlarni bir-biridan ajratib, ma’nolarini aniqlashtirib beradigan kitob alifbo tartibida bo’lgani uchun shunday nomlangan va “mu’jam”ga tilshunoslar nuqtai nazaridan quyidagicha ta’rif berishimiz mumkin: “Mu’jam til so’zlarining imkon qadar katta qismini sharhi va ma’nolari izohi bilan birga o’ziga xos tartibda, xoh alifbo harflariga ko’ra, xoh mavzularga ko’ra tizimlangan holda o’z ichiga olgan kitobdir. Mukammal mu’jam tildagi barcha so’zlarni ma’nosining izohi, qaysi o’zakdan yasalgani, talaffuz yo’llari, ishlatilish o’rinlarini ko’rsatib beruvchi dalillar bilan birga qamragan bo’lishi kerak”[21].

Attorga ko’ra, mazkur xususiyatlarga ega bo’lmagan kitobga nisbatan “mu’jam” atamasini qo’llab bo’lmaydi. Zotan, cheklangan so’zlarni sharhlab beruvchi kitob mu’jam emasdir.

Zamonaviy ingliz tili Oksford lug’atida “lug’at” (dictionary) so’ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “Lug’at bu tilning alohida so’zlari (yoki ularning ma’lum bir sinfi) imlosi, talaffuzi, ma’nosi va qo’llanilishi, sinonimlari, kelib chiqishi va tarixi yoki hech bo’lmaganda bu ma’lumotlardan ba’zilar ko’rsatiladigan kitobdir; Murojaat qilish qulay bo’lishi uchun so’zlar ma’lum bir tartibda, hozirga kelib aksariyat tillarda alifbo tartibida joylashtiriladi va kattaroq lug’atlarda ma’lumotlar adabiyotlardan olingan iqtiboslar bilan mustahkamlanadi”[22].

Oksford lug’atining mazkur ta’rifi Yevropa tillari, xitoy, hind tillari kabi so’zning transkripsiyasi berilishi shart bo’lgan tillarni ham o’z ichiga oladi. Zero, hamma tillarda ham lug’atda talaffuz alohida berilmaydi. O’zbek, turk (va boshqa turkiy tillar), arab, fors, urdu kabi tillarda so’zlarning transkripsiyasiga ehtiyoj yo’q. Ularda so’zlar qanday yozilsa, shunday o’qiladi. Ta’rifning yana bir jihati, unda rus tilidagi kabi so’zlarning urg’usini ko’rsatish zarurati esga olinmagan. Lekin buni talaffuz shartiga umumiy shaklda kiritib yuborish mumkin.

Rus tilining katta izohli lug’atida “slovar” so’ziga quyidagicha ta’rif beriladi: “(Lug’at) – muayyan tartibda (odatda alifbo tartibida) joylashtirilgan, ma’nosining izohi yoki boshqa tilga tarjimasi berilgan so’zlar ro’yxatidan iborat kitob”[23]. Kezi kelganda shuni ham qayd etish o’rinliki, yuqorida keltirilgan O’zbek tilining izohli lug’atidagi “lug’at” so’zi ta’rifi ham mana shu ta’rifga hamohangdir.

Tadqiqotchi Galip Yavuz lug’atga berilgan quyidagi ta’rifni keltiradi: “Bir dildeki sözcüksel birimlerin tümünü ya da bir bölümünü, genellikle abecesel düzen, kimi durumlarda da konulara ya da kavramsal alanlara göre tanımları, tanıkları, söylenişleri, kökenleri, kullanımları, dilbilgisi ulamları, eşanlamlıları vb. ya da bir başka dildeki karşılıkları ile sunan yapıttır” (Lug’at bu – tildagi leksik birliklarning hammasini yoki ayrimlarini, odatda, alifbo tartibida, ayrim hollarda mavzular yoki tushuncha sohalariga ko’ra, ta’riflari, dalillari, talaffuzlari, kelib chiqishi, qo’llanishlari, grammatik kategoriyalari, sinonimlari va hokozolar yoki ularning boshqa tildagi muqobillari bilan taqdim etadigan asardir)[24].

Tilshunos-lug’atshunoslar tomonidan “lug’at” so’ziga ko’plab ta’riflar berilgan bo’lishiga qaramay, ko’proq tillarga xos xususiyatlarini o’zida aks ettirgan kengqamrovli ta’riflar ham bor. L.Zgusta bu borada shunday deydi: “Lug’atga berilgan, menga ma’lum ko’plab ta’riflar ichida eng yaxshisi K.K.Berg tomonidan berilgan quyidagi ta’rifdir: “Lug’at bu ma’lum bir nutq jamoasiga

oid odatiy nutq birliklaridan tuzilgan va muallif tomonidan malakali o'quvchi har bir alohida shaklning ma'nosini tushunadigan, uning o'z jamiyatidagi funksiyasi va unga tegishli faktlar haqida xabardor bo'ladigan tarzda sharhlangan ijtimoiylashgan til birliklarining tizimli ro'yxatidir"[25].

Howard Jackson o'zining "Lexicography. An Introduction" kitobida lug'atga ancha ijodiy yondoshadi va badiiy ta'rif beradi. Unga ko'ra, lug'at maslahat kitobidir. Odamlar lug'atlar bilan so'zlar haqida ma'lumot topish uchun mashvart qiladilar[26].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida tildagi leksik birliklarni o'zida jamlagan va ko'plab boshqa shartlarni o'zida mujassam qilgan maxsus to'plamga nisbatan qo'llanadigan "lug'at" atamasi bir qancha tadrijiy bosqichlarni bosib o'tgan. Ushbu atama o'zbek tilining "qoniya joniga" singib ketgan arab tili va leksikasining ijobiy ta'sirida vujudga kelgan va rivojlangan.

ADABIYOTLAR

1. إسماعيل بن حماد الجوهري. الصحاح تاج اللغة وصحاح العربية. دار العلم للملايين. الطبعة الرابعة. القاهرة 1974 م. المجلد الأول، ص. 140.
2. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 4 jildli. 4-jild. Toshkent, 2022. 156-b.
3. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 1-jild. Toshkent, 2017. 4-5-66.
4. حاجي خليفة. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. بيروت، 1941. المجلد الأول، ص. 253.
5. محمد غياث الدين بن جلال الدين بن شرف الدين الرامپوري. غياث اللغات. كانبور. 1905 م. ص. 3.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 2-jild. Toshkent, 2006. 512-6.
7. معلم ناجي عمر غلي بي اوغلي. لغت ناجي. استانبول: مطبعة عصر. 1322 هـ.
8. حسين رمزي. لغت رمزي. جلد اول. استانبول: مطبعة حسين رمزي. 1305 هـ.
9. حسن نصار. المعجم العربي: نشأته وتطوره. مصر: دار مصر للطباعة. 1988. الطبعة الرابعة، ص. 7؛ ديزيرة سقال. نشأة المعاجم العربية وتطورها. بيروت: دار الصداقة العربية. ص. 11.
10. عثمان بن جني، أبو الفتح. سر صناعة الإعراب. الطبعة الأولى، في مجلدين. دمشق: دار القلم، 1985. المجلد الأول، ص. 36.
11. شعيب حبيبة ومسعودة خلاف. اشتقاق مصطلح المعجم: عرض ونقد// مجلة العيار. العدد 52. سنة 2020. ص. 648-665.
12. أكرم ضياء العمري. عصر الخلافة الراشدة. الرياض: مكتبة العبيكان. تاريخ الطبع لا يوجد. ص. 475.
13. ابن سنان الخفاجي. سر الفصاحة. ص. 73-74.
14. محمد بن إسماعيل، أبو عبد الله البخاري. الجامع الصحيح. القاهرة: المكتبة السلفية. 1400 هـ. الجزء الثالث، ص. 96.
15. إميل يعقوب. المعاجم اللغوية العربية: بدانتها وتطورها. بيروت: دار العلم للملايين. ص. 12.
16. N.Ibrohimov, A.Aripov, I.Ikromjonov, A.Zayriev. Al-Qomus: arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 4 jildli. 3-jild. Toshkent, 2019. 887-6.
17. أحمد مختار عمر. معجم اللغة العربية المعاصرة. القاهرة: عالم الكتب. 2008. المجلد الثاني. ص. 1462؛ جبران مسعود. معجم الرائد. بيروت: دار المعلمين. 1992. ص. 751.
18. سعيد الشرتوني. أقرب الموارد في فصح العربية والشوارد. الجزء الثاني. قم-إيران، 1403 هـ. ص. 1038.
19. Hulusi Kiliç. El-Kāmûsü'l-muhîr // TDV İslâm Ansiklopedisi, 24 cilt. İstanbul, 2001. s. 287.
20. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli, 2-jild. Toshkent, 2006. 512-6.
21. أحمد عبد الغفور عطار. مقدمة الصحاح. الطبعة الثالثة. بيروت: دار المعلمين، 1984. ص. 42.
22. The Concise Oxford Dictionary of Current English 9th edition. 1998.
23. Большой толковый словарь. <http://gramota.ru/slovari/dic/?word=%D1%81%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%B0%D1%80%D1%8C&all=x>
24. Galip Yavuz. Sözlükbilim ve Arapça sözlük çalışmalarına tarihsel bir yaklaşım // Cumhuriyet Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 2002, 6 (1) s. 113-122.
25. Zgusta L. Manual of Lexicography. Czechoslovak Academy of Sciences, 1971. p. 197.
26. Jackson H. Lexicography. An Introduction. London and New York. 2002. P.28.